

Huquqbuzarliklar Maxsus Profilaktikasi Chora-Tadbirlarini Amalga Oshirishning Bugungi Holati Haqida Ayrim Fikrlar

Bafoqulov Polvonzoda Telmonovich

Navoiy viloyati Navoiy shahar IIB JXX profilaktika inspektori, leytenant

Bugungi kungacha huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotida ayrim toifadagi shaxslar va ayrim turdagi huquqbuzarliklar bo'yicha amalga oshiriladigan maxsus profilaktik chora-tadbir tizimi muayyan darajada shakllanib ulgurgan. Buni milliy qonunchilik tizimida ham ko'rish mumkin.

Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishning bugungi holati bo'yicha aniq xulosa qilish va baho berish uchun mavjud amaliyotni muayyan mezonlar asosida tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Chunki, mezon¹ faoliyatni o'zaro bog'liq jihatlarini uzviy aloqadorlikda, tizimli va mantiqan tahlil qilish hamda unga obyektiv baho berish imkonini beradi.

Yuqoridagi huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarga aniqlik kiritildi. Aynan shu belgilarni huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi amaliyotining bugungi holatini o'rganish va baholash mezoni sifatida olish maqsadga muvofiq. Ushbu mezonlar amaliyotda huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi *birinchidan*, mavjud ilmiy-nazariy qoidalarga mos ravishda o'tkazilayotgan yoki o'tkazilmayotganligiga; *ikkinchidan*, qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartib-qoidalarga rioya etilayotgan yoki etilmayotganligiga oydinlik kiritish uchun yordam beradi.

Birinchi mezon, hisobot davrlarida huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar hamda ularni sodir etgan shaxslar dinamikasini tahlil qilinib, nisbatan ko'paygan ayrim turdagi huquqbuzarliklar, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar va shaxslar toifalarini aniqlanayotganligi.

Ikkinchi mezon, nisbatan ko'paygan ayrim turdagi huquqbuzarliklar, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar va shaxslar toifalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, kompleks amalga oshiriladigan maxsus profilaktik tadbirlarning ishlab chiqilayotganligi va tizimli ravishda amalga oshirilayotganligi.

Uchinchi mezon, normativ hujjatlarda huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi tadbirlarini o'tkazish asoslari va tartibining belgilanganligi;

To'rtinchi mezon, qonun hujjatlarida belgilangan asoslar yuzaga kelganda huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarining qay darajada amalga oshirilayotganligi.

Beshinchi mezon, amalga oshirilgan maxsus profilaktik chora-tadbirlar natijalari bo'yicha yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash, kelgusida bu kabi xato va kamchiliklarga qo'l qo'ymaslik choralarining ko'rilayotganligi.

Oltinchi mezon, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatar va tahdidlar yuzaga kelganda zudlik bilan tezkor maxsus profilaktik tadbirlarni amalga oshirilayotganligi.

Yettinchi mezon, jamiyatda ko'p sodir etilayotgan muayyan g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga nisbatan javobgarlik belgilash, shuningdek ko'p sodir etilayotgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish choralarining ko'rilayotganligi.

¹ "Мезон" - таққослаш ёки баҳолаш учун ўлчов, андоза // Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Таҳрир хайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 576 (671) б.

Sakkizinchi mezon, maxsus profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi subyektlarning zarur kasbiy bilim, malaka va amaliy tajribaga qay darajada egaligi.

Yuqoridagilarni inobatga olganda, huquqbuzarliklar profilaktikasida profilaktik tashxis (diagnostika)ning ilmiy asoslarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha amaliy tajribalar shakllantirilishini, bu jarayonga psixologlarning ishtirok etishini² ta'minlash zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat rahbarining 2021 yil 12 fevralda Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatida o'tkazilgan yig'ilishda nizoli oilalar va aholining "muammoli toifalari"dan kelib chiqib, ularga "diagnoz" qo'yish tartibini belgilashning nazarda tutilgani, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi PQ-5050-son qarori³ bilan tasdiqlangan "Mahalla huquq-tartibot maskani tag'risidagi Nizom"da Maskanning asosiy funksiyalaridan biri sifatida "profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probasiya nazoratidagi shaxslar bilan ijtimoiy moslashtirish ishlarini ularning elektron ijtimoiy-psixologik portretini tuzgan holda yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshirilishini tashkil etish"ning belgilangani ushbu masalani yanada dolzarblashtirdi.

Mamlakatimizda jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish, ularni jamiyatdan ajratmagan holda jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda qayta tarbiyalash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bir paytda mazkur masalaga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 fevral kunidagi "Ichki ishlar organlari probasiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 84-son qarori⁴da probasiya xizmati faoliyatining mexanizmlarini takomillashtirish, nazorat ostidagilarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish tartibini joriy etish, ayniqsa, ularning "ijtimoiy-psixologik portreti"ni tuzgan holda o'rganish, shuningdek, bu jarayonlarda mutaxassis-psixologlarni tayyorlash, probasiya bo'linmalariga mutaxassis-psixologlarni jalb etish tizimini yo'lga qo'yishga alohida urg'u berildi.

Darhaqiqat, V.V. Makarova ta'kidlaganidek, shartli hukm qilinganlar profilaktikasida bu toifadagi shaxslar bilan individual ishlashning rejasini ishlab chiqish amaliyotni joriy etish faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi⁵.

Nazarda tutilayotgan mazkur individual profilaktik rejalar profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va shartli hukm muddatiga tuzilib, o'zida shaxsni axloqan tuzatish va jamiyatga qaytarishni mujassam etgan kompleks, o'zaro aloqador, mantiqiy izchillikka ega chora-tadbirlar tizimini mujassamlashtirmog'i lozim. Masalaning ushbu jihati ilmiy tadqiqot ishlarida ham yetarlicha e'tibor qaratilmayapti deyish mumkin.

Misol uchun, O.V. Podchinok, shartli hukm qilingan shaxslar o'rtasida amalga oshiriladigan maxsus kriminologik choralar sinov muddati davrida amalga oshirilishi, Rossiya Federasiyasining Jinoyat kodeksi normalari bilan belgilanishini ta'kidlab, shartli hukm qilingan shaxslar bilan amalga

² Мусатова Е.Е. Криминологическая характеристика и профилактика насильственных преступлений против жизни и здоровья женщин: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Рязань, 2011. – С. 22 (25).

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги "Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тағрисида"ги ПҚ-5050-сон қарори // URL: <https://lex.uz/pdfs/5353841> (08.04.2021й.да мурожаат қилинган).

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 февралдаги "Ички ишлар органлари пробация хизмати фаолиятини самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 84-сон қарори // URL: <https://lex.uz/docs/4735981> (05.09.2020 й.да мурожаат қилинган)..

⁵ Макарова В.В. Преступления, совершаемые условно осужденными: современное состояние и основные направления профилактики: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Рязань, 2019. – С. 21 (25).

oshiriladigan individual maxsus kriminologik chora-tadbirlarni sanab o'tgan bo'lsa-da, ammo individual profilaktik rejani ishlab chiqish masalasiga e'tiborini qaratmagan⁶ (25-26).

Zero, chora-tadbirlar shaxsning aniqlangan individual, ya'ni ma'naviy, ruhiy, biofiziologik xususiyatlarini, turmush sharoiti va oilaviy ahvolini tavsiflovchi ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqilishi, shuningdek shartli hukm qilingan yoki jinoiy jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan individual profilaktik rejalar bir yil muddatga tuzilishi va shartli hukm yoki jazo muddati davri bo'yicha har yili yangilanib borilishi bilan tavsiyaviy xarakterga egadir. Bu borada profilaktik ishlar jarayonida yangi aniqlangan holatlar bo'yicha individual profilaktik rejaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkin hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, kelgusida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi amaliyotini o'rganish va tahlil qilishda "profilaktika subyektlarining maxsus hisobida turuvchi shaxslar bilan individual ishlash maqsadini ko'zlovchi yakka tartibdagi maxsus profilaktik ishlar rejasini ishlab chiqish va rejada belgilangan kompleks profilaktik tadbirlarning tizimli amalga oshirilishini ta'minlanganligi"ni alohida mezon sifatida olinishi tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu masalani mezonlar asosida yoritilishi *birinchidan*, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishning bugungi holatini oydinlashtirishga, *ikkinchidan*, ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlash va mavjud holatga obyektiv baho berish, *uchinchidan*, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosa, amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

⁶ Подчинок О.В. Криминологическая характеристика и профилактика преступлений, совершаемых условно осужденными: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Рязань, 2005. – С. 25-26 (36).